

03-03/3-18-1.
02.02.2024



O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya vaziri o'rinbosari

J. Kazbekov

2024-yil 2-fevral

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida o'tkazilgan videosektor yig'ilishi 2023-yil 11-apreldagi 18-son bayonining 10-bandi, vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarini joriy yilda bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish


REJASI

T/r	Chora-tadbir nomi	Muddat	Mas'ullar
1.	Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalari, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti, Toshkent gidrometeorologiya texnikumi, O'rmon xo'jaligi texnikumini joriy yilda bitirayotgan yoshlar ro'yxatini shakllantirish.	2024-yil fevral	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
2.	Ta'lim muassasalarini joriy yilda bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish ishlarini samarali tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilash.	2024-yil fevral - may	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)
3.	Ta'lim muassasalarini joriy yilda bitirayotgan yoshlarni amaliyot o'tash ishlarini samarali tashkil etish (<i>bunda bitiruvchilarni ishga joylashadigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki tadbirkorlik subyektlarida amaliyot o'tashga amaliy yordam berish</i>).	2024-yil aprel - may	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi, Inson resurslarini boshqarish bo'limi, vazirlik tizimi tashkilotlar hamda hududiy bo'linma

4.	<p>Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarini joriy yilda bitirayotgan yoshlarni bandligiga ko'maklashish yuzasidan <u>aniq manzilli choralar</u> belgilash.</p> <p><i>(Bitiruvchilarni bandligini ta'minlashda vazirlik tizimi tashkilotlari hamda hududiy bo'linma rahbarlari mas'ul etib belgilanadi).</i></p>	2024-yil belgilangan muddatlarda (may - iyun)	<p>Inson resurslarini boshqarish bo'limi, vazirlik tizimi tashkilotlar hamda hududiy bo'linma rahbarlari, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University), Toshkent gidrometeorologiya texnikumi, O'rmon xo'jaligi texnikumini</p>
5.	<p>Toshkent gidrometeorologiya texnikumi va O'rmon xo'jaligi texnikumining joriy yilda bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish yuzasidan ishlab chiqilgan "Yoshlar bandligi dasturi" <i>(ilova qilinadi)</i> ijrosini nazorat qilish.</p>	Belgilangan muddatlarda	<p>Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)</p>
6.	<p>Joriy yilda bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish yuzasidan vazirlikka hisobot taqdim etish.</p>	2024-yil har oyda	<p>Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)</p>

IZOX: yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish rejasini ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi va har oyda rahbariyatga axborot kiritiladi. Mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan keskin choralar ko'rilishi haqida ogohlantiriladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 –yil 11-aprel kuni

“Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o'tkazilgan videoselekt yig'ilishida berilgan 18-son topshiriqlar bayonining 10-bandi ijrosi yuzasidan

O'rmon xo'jaligi texnikumining

“YOSHLAR BANDLIGI DASTURI”

№	Chora-tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ullar
1.	O'rmon xo'jaligi texnikumini 2024-yilda bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ularning bandligiga ko'maklashish rejasini ishlab chiqish.	fevral 2024 yil	O'TIBDO'- Sh.Rajabova Ta'lim ustalari Psixolog
2.	O'quvchilarning o'zlari tanlagan ta'lim yo'nalishi, kasb-hunarlarni puxtaroq egallashga, fan-texnika sirlarini mukammalroq o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ilmiy izlanishlar, konstruktiv loyihalash, ixtirochilik va texnikaviy ijodiyot sohalaridagi ishlarini muvofiqlashtirish.	yil davomida	O'TIBDO'- Sh.Rajabova Ta'lim ustalari Psixolog
3.	Tuman bandlikka ko'maklashuvchi markaz, korxonalar tashkilotlar, o'rmon xo'jaliklari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish va muntazam axborot almashish orqali tuman ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridan kelib chiqib, 2023-2024 yillarda yaratiladigan ish o'rinlari haqida bittiruvchilarga ma'lumotlar berib borish.	I yarim yillik davomida	O'TIBDO'- Sh.Rajabova Ta'lim ustalari Psixolog
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan bitiruvchilar uchun “Tijorat bank”lari bilan hamkorlikda uchrashuvlar tashkil qilish.	yil davomida	O'TIBDO'- Sh.Rajabova Ta'lim ustalari Psixolog